XALQ DEPUTATLARI OHANGARON TUMAN KENGASHINING QARORI

2024 - yil 15 - yanvar VI-93-6-10-134-K/24 Ohangaron tuman hokimligi

Xalq deputatlari Ohangaron tuman Kengashining 2024-yil 6-yanvardagi VI-93-2-10-134-K/24-sonli qaroriga qisman o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 886-sonli qonuniga muvofiq va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrdagi 01/30-2-10352-sonli xati hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-85-121-10-0-K/23-sonli “Toshkent viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlarini inobatga olib, Xalq deputatlari Ohangaron tuman Kengashining 2024-yil 6-yanvardagi VI-93-2-10-134-K/24-sonli Kengash qarori qabul qilinganligini inobatga olib,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari va Xalq deputatlari Ohangaron tuman Kengashining 2024-yil 6-yanvardagi VI-93-2-10-134-K/24-son bilan chiqarilgan qarorining 7-ilovasida 2024-yil uchun Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘i stavkalari koeffitsientlari belgilangan.

Ushbu ilovada nomlari ko‘rsatilgan 7 ta mahallaning yer solig‘i stavkalari 2023-yil uchun tasdiqlanganidan kam bo‘lganligi sababli o‘zgartirilgan holda

quyidagicha belgilansin.

7+1-ilova

T/r	MFYlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (so‘mda)
1	“G`alla-quduq” MFY	0,80	31 080.0	0,80	279,72
2	“Gulobod” MFY	0,80	31 080.0	0,80	279,72
3	“Ko`ksaroy” MFY	0,80	31 080.0	0,80	279,72
4	“Chetsuv” MFY	0,80	31 080.0	0,80	279,72
5	“Chinor” MFY	0,80	31 080.0	0,80	279,72
6	Shodmalik MFY	0,80	31 080.0	0,80	279,72
7	Yangihayot MFY	0,80	31 080.0	0,80	279,72

2. Xalq deputatlari Ohangaron tuman Kengashining 2024-yil 6-yanvardagi VI-93-2-10-134-K/24-sonli Kengash qarorining qolgan ilova va bndlari o`zgartirishsiz qoldirilsin.

3.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlarining tuman kengashining Mahalliy byudjetini shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (A.Ibragimov) va tuman hokimining birinchi o’rinbosari Sh.Azamatov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Ohangaron tumani Kengashi raisi **E.M.Muxitdinov**